

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.H.Axmedova

Ingliz nasrida viktoriyan davri ahamiyati 210

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi 213

TILSHUNOSLIK**Sh.A.Aliyeva**

Matn maqomidagi grafema va semantik derivatsiya 216

M.S.Ishanjanova

Lingvokultural kodlarning mazmuniy tizimi 220

D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova

Professor A.Mamajonovning o'zbek xalq maqollaridan foydalanish mahorati 224

R.A.Achilova

Ingliz tilidagi allyuziyalarning lingvolturologik tadqiqi 228

M.A.Mo'minova

"Til portfellari" integrativ texnologiyasi (ingliz tili misolida) 231

N.N.RadjabovIngliz va o'zbek tillarida undoshlarning fonetik va grafemik xususiyatlarida izomorfizm
va allomorfizm 235**M.X.Hakimov**

Nutqiy akt va intonatsiya 242

G.A.Musayeva

Oziq-ovqat texnologiyasi darslarida Wiki texnologiyasi asosida yozma nutqni o'qitish 246

U.B.Usmonova

Tilshunoslikda publisistik matn tadqiqiga yangicha qarash 251

Z.S.Tashtemirova, N.M.Izbayeva

Ko'p tillilik tushunchasi haqida 254

F.Sh.Alimov, R.A.Faxriddinova

Raqamlashtirish sharoitida yozma nutqni shakllantirishning lingvistik omillari 259

A.L.Melikuziev

Nolisoniy semiotik sistema va uning elementlari 265

FANIMIZ FIDOYILARI

АКАДЕМИК МАХМУД САЛАХИТДИНОВИЧ САЛАХИТДИНОВ 269

PROFESSOR A.MAMAJONOVNING O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH MAHORATI

МАСТЕРЕСТВО ПРОФЕССОРА А.МАМАЖОНОВА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ УЗБЕКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ

PROFESSOR A. MAMAJONOV'S MASTERY IN USING UZBEK FOLK PROVERB

¹**Yuldasheva Dilafruz Mahammadaliyevna,**

¹Farg'ona davlat universiteti, dotsenti

²**Ermatova Marg'uba A'zamjonovna,**

²Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

³**Abdumalikova Nozanin Ulug'bek qizi**

³Farg'ona davlat universiteti, talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada professor A.Mamajonovning tilshunoslikga oid ilmiy-nazariy qarashlari bayon etiladi. Olimning "Qo'shma gap stilistikasi" nomli monografiyasi o'rganish obyekti qilib olingan. Asarda xalq tilining boy, bitmas-tuganmas xazinasidan unumli foydalangan holda maqollarga murojaat qilganligi, qo'shma gapda qo'llanuvchi sintaktik-stilistik figuralar – antiteza, anafora, infora, parallelizm, qo'shma gaplarda sanash usuli, qo'shma gaplarda ellipsis, qo'shma gaplarda inversiya va ularning funksiyalari tahlil qilinadi. Bunda olimning uslubshunoslikga oid ilmiy qarashlari, qo'shma gap stilistikasini ochib berishda xalq og'zaki ijodidagi maqollardan, topishmoq va qo'shiqlardan foydalanish mahorati yoriltiladi.

Аннотация

В данной статье изложены научно-теоретические взгляды профессора А. Мамаджонова касательно языкоznания. Анализируется монография учёного «Стилистика сложноподчиненных предложений». В работе анализируются использования пословицы с использованием богатого и неисчерпаемого богатства народного языка, синтаксические и стилистические фигуры, используемые в сложных предложениях - антитеза, анафора, инфора, параллелизм, прием счета в сложных предложениях, многоточие в сложных предложениях, инверсия в союзах и их функции. Освещены научные взгляды ученого на стилистику, умение использовать народные пословицы, загадки и песни для раскрытия стилистики сложных предложений.

Abstract

This article presents the scientific and theoretical views of Professor A. Mamadjonov concerning linguistics. The scientist's monograph "Stylistics of complex sentence" will be analyzed. The work analyzes the use of proverbs using the rich and inexhaustible wealth of the folk language, syntactic and stylistic figures used in complex sentences - antithesis, anaphora, infora, parallelism, counting in complex sentences, ellipsis in complex sentences, inversion in conjunctions and their functions. The scientist's scientific views on stylistics, the ability to use folk proverbs, riddles and songs to reveal the stylistics of complex sentences will be covered.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, qo'shma gap stilistikasi, xalq og'zaki ijodi, maqollar, antiteza hodisasi, stilistika asoschisi.

Ключевые слова: Языкоznание, стилистика сложноподчиненных предложений, устное народное творчество, пословицы, антитеза, основатель стилистики.

Key words: Linguistics, stylistics of complex sentences, oral folk art, proverbs, antithesis, founder of stylistics.

KIRISH

Ma'lumki, Sobiq Ittifoq davrida aksariyat turkiy tillar kabi o'zbek tili ham rus va Evropa tillarining grammatik qoliplari asosida o'rganilib kelingan. O'zbek tilining ichki substansial tabiatidan kelib chiqqan holda alohida milliy yaxlitlik sifatida o'rganish bugungi kunning talabidir. Aksariyat tilshunoslikka oid darsliklarda til qonuniyatları va ilmiy g'oyalarni, ilmiy nazariy qarashlarni badiiy asarlardan olingan misollar bilan dalillash odat tusiga kirgan. Professor A.Mamajonovda xalq tilining boy, bitmas-tuganmas xazinasidan unumli foydalanish maqsadida maqollarga murojaat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Tafakkurga ozuqa bo'lgan, nutqning ta'sirchanligini yuzaga keltiradigan vositalardan asosiysi esa maqollardir. 1990-yilda "Fan" nashriyoti tomonidan chop etilgan A.Mamajonovning

TILSHUNOSLIK

“Qo’shma gap stilistikasi” nomli monografiyasida o’zbek tilida so’zlashuvchilarning mental dunyosini, etnik xususiyatlarni ilmiy nazariy qarashlarga singdirilgan.

Ta’kidlash joizki, A.Mamajonov o’zbek tilshunosligi tarixida birinchilardan bo’lib qo’shma gap stilistikasiga doir muammolariga qo’l urdi. Takrorning anafora, epifora, infora turlari, ularning uslubiy farqli tomonlarini o’zbek tilshunosligi tarixida ilk bor atroflicha yoritib berdi [1].

Olimning izlanishlari, asosan, qo’shma gaplarning stilistik xususiyatlari bag’ishlangan bo’lib, bu masala sintaktik stilistikaning eng murakkab muammolaridan hisoblanadi.

Stilistik tahlil juda keng kulamga ega bo’lib, u tovush tahlilidan tortib, to butun bir matn tahlilgacha bo’lgan til hodisalarini o’z ichiga oladi. Bundan tashqari, stilistik tahlilda til va nutq birliklarining funksional uslublarida qo’llanish masalasi alohida o’rin egallaydi [2].

Nutq madaniyati so’zlovchi yoki yozuvchi nutqining to’g’ri qurilishi, unda leksik-grammatik va stilistik mezonlarning o’z o’rnida qo’llanishi, til tasviriy vositalaridan o’rinli foydalana olish kabilalar bilan belgilanadi. Nutq madaniyati har bir kishida o’z fikrini mazmundor, shu bilan birga, qulay etkaza olish qobiliyatining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Nutq madaniyatini egallash tilning stilistik qoida va mezonlarini bilish bilan bog’liqdir.

Mana shularni to’g’ri his qilgan holda tajribali olim “Qo’shma gap stilistikasi” monografiyasida tilimiz lug’atda ham, ifoda vositalariga ham, sintaktik modellarga ham naqadar boy ekani haqida ishonch hosil etamiz. Muallif 100ga yaqin maqollaridan, xalq qo’shiqlari va topishmoqlardan, o’zbek tilida ijod qilayotgan juda ko’p qalamkashlardan (3000dan ortiq) misollar tanlaganki, bular o’quvchida nafaqat lingvistik taassurot qoldiradi, ayni vaqtida chuqur estetik zavq-shavq uyg’otadi va mavjud tuyg’ularni yana ham orttiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Professor Alijon Mamajonov o’z monografiyasida stilistik qarashlarini bayon etar ekan, xalq og’zaki ijodiga murojaat qiladi. Qo’shma gap stilistikasi mavzusini oddiy, sodda tilda, mahorat bilan ochib berishga intiladi. Qo’shma gaplarni tahlil qilishda xalqimiz sevib ijtimoiy hayotida ishlataligida maqollardan misollar keltiradiki, natijada qo’shma gap mavzusi har bir o’quvchi silliq hazm qilinadi.

Maqollarda so’z qimmati alohida yorqin ifodalananadi. Chunki maqollardagi so’zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so’z qo’shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo’ladi.

Alijon Mamajonov qo’shma gapda qo’llanuvchi sintaktik-stilistik figuralar – antiteza, anafora, infora, parallelizm, qo’shma gaplarda sanash usuli, qo’shma gaplarda ellipsis, qo’shma gaplarda inversiya va ularning funksiyalarini izohlaganda xalq og’zaki ijodidagi maqollardan, topishmoq va qo’shiqlardan foydalananadi.

Biz olimning quyida antiteza hodisasi misolida xalq maqollaridan foydalanish mahoratini tahlil etamiz.

Antiteza badiiy adabiyotda ma’lum bir stilistik vazifani bajarish uchun xizmat qiladigan murakkab stilistik vositadir [3].

Olim eng qadimgi stilistik usullardan biri hisoblangan antiteza hozirgi zamon o’zbek adabiy tili nutq stillarida juda keng qo’llanganligini maqollar misolida tahlil qiladi.

Antiteza badiiy adabiyotda va notiqlik san’atida aktiv qo’llanadigan tushunchalar, fikrlar qarama-qarshi qo’yilishi natijasida nutqning ta’sirchanligi ortadi, bayon qilinayotgan umumiyl fikrga nisbatan tinglovchining qiziqlishi kuchayadi [4].

Antiteza usulidan stilistik maqsadlarda keng foydalaniladi. Antiteza stilistik oppozitsiya usulidir. U ikkilik xarakteriga ega, ya’ni unda faqat ikki narsa bir-biriga solishtiriladi va zid qo’yiladi [4].

Nutqda ifodalilikni yanada kuchaytirish maqsadida ma’nosи jihatdan bir-biriga zid tushunchalar, mazmunan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlarni qarama-qarshi qo’yish yo’li bilan qiyoslash usuli antiteza deyiladi. Antiteza hodisasi til yaruslarining hammasida ham kuzatiladi. Lekin bu hodisaning sintaktik doirasidagi, ayniqsa, qo’shma gap sintaksisi doirasidagi funksiyasi alohida ahamiyatga molik. Sintaktik-stilistik figuralar doirasida antiteza usuli qo’shma gaplarda qo’llanish mahsuldarligi jihatdan sintaktik takror turlari bilan bir qatorda turadi. Qo’shma gap tarkibidagi bu sintaktik-stilistik vositalarda intonatsiya ko’tarilib, shu gap doirasidagi kulminatsiya nuqtaga yetadi.

Olim fikricha, antitezali sintaktik konstruksiyalar mazmunan ikki qutbga ajralib, ular biri ikkinchisini inkor etadi [5].

Odil kishi so'ziga bino qo'yari,

Nodon kishi o'ziga bino qo'yari (Maqol).

A.Mamajonov antiteza hodisasining reallashuvida til va nutq birliklarining quyidagi turlari antiteza materiali bo'lib xizmat qiladishini maqollar misolida ko'rsatib o'tadi.

1. Antonim so'zlar:

Uying tor bo'lsa ham, Ko'ngling keng bo'lsin (Maqol).

Antiteza hodisasining yuzaga chiqishida antonim so'zlarning juda katta rol o'ynashi ko'p stilistlar tomonidan alohida ta'kidlanadi [6].

Alijon Mamajonov antonimlar ishtirokida tuzilgan antitezali qo'shma gaplar, ko'pincha, maqollardan iboratligini ta'kidlaydi:

Odam bo'lish oson, Odamiy bo'lish qiyin (Maqol).

2. Ayrim leksik-grammatik formalar.

Olim antitezali qo'shma gaplarning ba'zi turlari kontekst talabi bilan ma'nosi bir-biriga teskari qo'yiladigan ayrim so'zlar va so'z formalari yordamida hosil qilinishini ham maqollar yordamida isbotlaydi:

Boshing osmonga yetsa ham, yerga qarab yur (Maqol).

Bolta tushguncha, kunda dam olar (Maqol).

3.Tasdiq va inkor formalni so'zlar.

Antitezali qo'shma gaplarda tasdiq va inkor formalni so'zlar antiteza materiali bo'lib hisoblanishi mumkin:

Bo'lar odam o'n yoshida bosh bo'lur,

Bo'imas adam qirqida ham yosh bo'lur (Maqol) [4].

Qarama-qarshilik mazmunini ifodalovchi usullardan yana biri xiazm deyiladi. Xiazm—gap bo'laklarining gapda teskari funksiyada qayta—takroran qo'lash usuli [4]. Masalan:

Yeyish uchun yashash kerak emas, yashash uchun eyish kerak. (Maqol).

Professor A. Mamajonov xalq og'zaki ijodidiga mansub bo'lgan maqollar misolida antiteza hodisasini qo'shma gapning uchala tipi orqali yuzaga chiqarish mumkinligini ko'rsatib o'tadi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar:

Nomard o'lar xazinasida topmay qut,

Mard olg'usi oddiy toshdan ham yoqut. (A. Umariy).

2. Bog'langan qo'shma gaplar:

Ko'za sindirgan azizu, suv keltirgan xor-zor. (Maqol).

Yo gaping chiqsin , yo dong'ing chiqsin. (Maqol).

3. Ergash gapli qo'shma gap:

a) Shart ergash gapli qo'shma gap:

Aytuvchi nodon bo'lsa, Tinglovchi dono kerak. (Maqol).

b) Payt ergash gapli qo'shma gap:

Oq parda tushganda, qorq parda ko'tarilar. (Maqol).

s) To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap:

O'g'ling ahmoq bo'lsa, kelining dono bo'lsin. (Maqol).

c) Qiyos ergash gapli qo'shma gap:

Nomard yoqib olovni asli,

Mard yonadi alangasida (T. To'la).

Antiteza usuli kitobxonga nutqda qarama-qarshi qo'yiladigan voqe-a-hodisa, predmetlar o'rtaqidagi aloqani konkret izohlashga yordam beradi.

XULOSA

Xullas, professor Alijon Mamajonov fikricha, antiteza qo'shma gap hosil qiluvchi sintaktik-stilistik vositalardan biri hisoblanadi, yangi ma'lumot berish hamda uni o'zlashtirishda katta effekt beradi. Antiteza uchun qarama-qarshi ma'no tushuncha va fikrlarni ajratib ko'rsatish, qayd etish, ularning bir-birlaridan farqini ta'kidlash va kuchaytirish kabi xususiyatlar xarakterlidir.

Olim xuddi shu maqsadlarda antitezali qo'shma gaplar ko'pincha maqollarda yorqin aks etishini isbot etdi.

TILSHUNOSLIK

A.Mamajonov ilmiy faoliyatini ko‘zdan kechirganimizda, uning o‘ta sinchkov, muammoli masalalrni tez ilg‘ab oladigan zabardast va zahmatkash olim ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Uning o‘zbek tilshunosligi rivojiga qo‘sghan hissasi g‘oyatda salmoqlidir. Tinib-tinchimas olim o‘zbek tilining deyarli barcha sohalarida barakali qalam tebratdi. Ayniqsa, uning o‘zbek tili sintaksisi rivojiga qo‘sghan hissasi g‘oyatda beqiyos. Uni haqli ravishda o‘zbek tili sintaktik stilistikasining asoschisi, deb atash mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G. Roziqova, M. Mamajonov. El ardog‘idagi olim. - Farg‘ona - 2006.
2. turizm. kasaba .uz.
3. Белова Г. М. Лингвистические средства выражения антитезы (на материале французского языка) АКД М. 1970. С. 5.
4. A. Mamajonov Qo’shma gap stilistikasi. – Toshkent: FAN nashriyoti.
5. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent - 1983, 123-bet.
6. Гвоздев А. Н. Очерки по стилистике русского языка. М. 1952. С. 54; Розенталь Д. Э. Практическая стилистика русского языка. М. 1968. С. 46; Белова Г. М. Лингвистические средства выражения антитезы. АКД. М. 1970. С.6.
7. Д.М.Юлдашева, доцент ФерГУ. Исследователь: М.А.Эрматова. О МОНОГРАФИИ ПО СТИЛИСТИКИ СЛОЖНОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ А.МАМАЖОНОВА\\ JOURNAL OF ADVANCED SCIENTIFIC RESSEACH. Vol.3. Issue 7 page 78. 2023. Impactfactorsearch 8.4.
8. Юлдашева Д.М. Pedagogical features of mental development of preschool children. Solid state Technalogy. Volume: 63 Issue:6 Publication Year:2020. 14221-14225.
9. Юлдашева Д.М. Anthropocentric approach to children’s speech study. Section 2: Linguistics theory, applied linguistics. Collection of materials of the international online conference. www.research-support-center.com 2020.92-95